



UDK: 796.01:341.24

Oybek OCHILOV,
O'zDJTSU dotsenti v.b
E-mail: oybek_ochilov@mail.ru

O'zDJTSU professori, p.f.d A.Shopulatov taqrizi asosida

XALQARO SPORT MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISHNING HUQUQIY JIHATLARI

Аннотация

Maqolada xalqaro sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarining huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Muallif xalqaro sport huquqi, milliy qonunchilik, shuningdek, xalqaro sport federatsiyalari tomonidan ishlab chiqilgan normativ hujjatlar asosida sport tadbirlarini tashkil qilishda yuzaga keladigan asosiy huquqiy masalalarga e'tibor qaratadi. Xususan, musobaqalarni litsenziyalash, sportchilarning huquqlari va majburiyatlari, dopingga qarshi kurash, intellektual mulk huquqlari, xavfsizlik choralari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik kabi masalalar yoritilgan. Maqola xalqaro sport musobaqalarining samarali va qonuniy tashkil etilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan huquqiy mexanizmlarni chuqur tahlil qilib beradi va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Sport, sport tomoshasi, xalqaro sport, musobaqa qoidalari, feyr-pley Olimpiya o'yinlari, Professional sport, havaskorlik sporti.

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СПОРТИВНЫХ СОРЕВНОВАНИЙ

Аннотация

В статье анализируются правовые основы организации и проведения международных спортивных соревнований. Автор акцентирует внимание на основных правовых вопросах, возникающих при организации спортивных мероприятий, основываясь на международном спортивном праве, национальном законодательстве, а также нормативных документах, разработанных международными спортивными федерациями. В частности, освещаются такие вопросы, как лицензирование соревнований, права и обязанности спортсменов, борьба с допингом, права интеллектуальной собственности, меры безопасности, сотрудничество с неправительственными организациями. В статье дается глубокий анализ правовых механизмов, необходимых для обеспечения эффективной и законной организации международных спортивных соревнований, а также даются практические рекомендации.

Ключевые слова: Спорт, спортивный зритель, международный спорт, правила соревнований, честная игра, Олимпийские игры, профессиональный спорт, любительский спорт.

LEGAL ASPECTS OF ORGANIZING AND CONDUCTING INTERNATIONAL SPORTS COMPETITIONS

Annotation

The article analyzes the legal framework for the organization and holding of international sports competitions. The author focuses on the main legal issues that arise in the organization of sports events based on international sports law, national legislation, as well as regulatory documents developed by international sports federations. In particular, issues such as licensing of competitions, rights and obligations of athletes, the fight against doping, intellectual property rights, security measures and cooperation with non-governmental organizations are covered. The article provides an in-depth analysis of the legal mechanisms necessary to ensure the effective and legal organization of international sports competitions and includes practical recommendations.

Key words: Sport, sports spectacle, international sport, competition rules, fair play Olympic Games, Professional sport, amateur sport.

Kirish. Sport va sport tomoshasi jahon miqyosida katta ahamiyatga ega bo'lgan, keng tarqalgan faoliyat turlaridan sanalgani uchun zamonaviy jamiyatda ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy hodisalar sifatida keng o'rganilmoqda. Ular nafaqat jismoniy faollikni, balki iqtisodiy, madaniy, psixologik va siyosiy jarayonlarni ham o'z ichiga olgan kompleks ijtimoiy institutlardir. Sport – bu insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, unda raqobat, mehnat, maqsadlilik, irodaviy tayyorgarlik kabi psixologik va sotsiologik omillar muhim o'rin tutadi. Sport - bu inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy va ruhiy rivojlanishni ta'minlash, shuningdek ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turidir. U insonni har tomonlama rivojlantiradi, maqsadga intilish, intizom, jamoaviylik va raqobatbardoshlik kabi ijobiy sifatlarni shakllantiradi.

Xalqaro sport — bu bir nechta davlat sportchilari ishtirok etadigan, odatda xalqaro federatsiyalar tomonidan nazorat qilinadigan sport faoliyati bo'lib, u maxsus huquqiy va tashkiliy qoidalarga asoslanadi.

Sportning asosiy turlari:

Individual va jamoaviy sport

Yozgi va qishki sport turlari

Professional va havaskor sport

Paralimpiya sporti

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Professor I.I. Perverzin ta'riflaganidek, sport musobaqasi — bu pedagogik jihatdan tashkil etilgan, sportchilar jismoniy imkoniyatlarini namoyon qiladigan va tomoshabinlarning sport-ko'ngilochar ehtiyojlarini qondiradigan maxsus faoliyat shaklidir[1]. L.P.Matveyev fikricha, sportning asosiy mohiyati aynan musobaqaviylikda ifodalanadi, ya'ni sport hayotida

musobaqaning o'rni markaziy bo'lib, u sportchining motivatsiyasi, intilishi va natijasini belgilaydi [2]. G'arb olimlaridan P. Bura (Pierre Bourdieu) sport tomoshasini ijtimoiy maydon deb atab, u orqali jamiyatdagi ierarxiyalar va qadriyatlar aks etishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, V. Andref sport tomoshasining iqtisodiy o'lchovini keltirib o'tadi: u sport musobaqalarini tahlil qilishda, ayniqsa professional sportda, reklama, translyatsiya huquqlari, brendlar va sovrin jamg'armalari orqali katta miqdorda daromad shakllanishini ko'rsatadi. Shu sababli sport tomoshasi nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy kapital hosil qiluvchi vosita sifatida ham qaraladi. P. Virilio va Jean Baudrillard kabi postmodernist olimlar sport tomoshasini virtual va ramziy tajriba sifatida tahlil qilib, uni zamonaviy axborot jamiyatidagi «simulyakrlik» fenomeni bilan bog'laydi. Sport voqealari real hayotdagi hodisalardan ko'ra, ko'proq media orqali yaratilgan va qayta ishlab chiqilgan tajriba sifatida qabul qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba hamda tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Sport tomoshasi — bu sport musobaqalarini bevosita sport majmualarida yoki ommaviy axborot vositalari orqali kuzatish faoliyatidir. U jamiyatda sportga bo'lgan qiziqishni oshiradi va sportning iqtisodiy jihatlari shakllantiradi (reklama, translyatsiya huquqlari va h.k.). Sport va sport tomoshasi o'zaro uzviy bog'langan hodisalar bo'lib, ular birgalikda sportni jismoniy va madaniy hodisa sifatida shakllantiradi. Ular orqali jamiyat ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi, iqtisodiy daromadlar hosil qiladi va madaniy tajriba almashinuvi amalga oshadi. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, sport va sport tomoshasi integral tizim bo'lib, ularni ajratib emas, balki o'zaro bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida o'rganish maqsadga muvofiq.

Xalqaro darajada quyidagi turlardagi musobaqalar o'tkaziladi:

kompleks musobaqalar: Olimpiya o'yinlari, Paralimpiya o'yinlari, Jahon va qit'a o'yinlari, yoshlar va talabalar spartakiadalari;

alohida sport turlari bo'yicha musobaqalar: jahon va qit'a chempionatlari, birinchiliklar, kuboklar va boshqalar.

1990-yillarning boshiga qadar sportda ikki xil musobaqa tizimi mavjud edi:

Havaskor sport tizimi — asosan Olimpiya sporti doirasida bo'lib, professional ishtirok etishga olinmas edi.

Professional sport tizimi — asosan AQShda rivojlangan bo'lib, daromad va tijoratga yo'naltirilgan edi.

1980-yillardan boshlab sportda tijoratlashuv jarayoni tezlashdi. Bu jarayonning asosiy ilhomlantiruvchisi sifatida Adidas kompaniyasi rahbari X. Dassler sanaladi. Tijorat omillari professional sportda eng muhim mezonlarga aylandi. Professor V. Andref ta'kidlaganidek, 1980-yillardan boshlab yuqori darajadagi havaskor sport ham tovar sifatida qarala boshlandi. Sportchilar yutuq va rekordlari uchun daromad olishni boshladilar. Tijorat yo'nalishi sport tashkilotlarining ishiga ham ta'sir ko'rsatdi: ustavlar, reglamentlar, musobaqa taqvimlari, joy tanlovi, reklama va marketing strategiyalari o'zgardi. Sport tadbirlarini tashkil etish ko'plab mamlakatlarda daromadli biznesga aylandi. Professor S.I. Guskov yozadi: "Professional va Olimpiya sporti bir asrdan ortiq vaqt davomida mustaqil ravishda rivojlanib keldi. Ular alohida musobaqa tizimlari, tayyorgarlik metodikalari va boshqalarni shakllantirdilar. Ularning yaqinlashuvi sportning rivojlanishida muhim omildir"[3].

Professional sportdagi asosiy farqlar:

Maqsad — sport yutuqlari emas, mavjud mahoratni tijorat sharoitida ko'rsatish;

Sport tomoshabinlar uchun xizmat sifatida qaraladi; Ko'proq foyda keltiruvchi sport turlariga e'tibor qaratiladi;

Qoidalar tomoshaboplikni oshirishga yo'naltiriladi; Musobaqalar ko'plab qo'shimcha xizmatlar bilan o'tkaziladi (shoular, musiqa, cheerleaderlar);

Tayyorlov va musobaqalar muvozanati farqli; Musobaqa taqvimi — uzoq va zich (masalan, NHLda 2003/2004-yilda 1230 o'yin o'tkazilgan);

Sport yulduzlariga asoslangan elita shakllanadi (Yaromir Yagr 88 million dollarlik shartnoma imzolagan);

Sportchilar reytinglari va narx bilan baholanadi (draft tizimi qo'llaniladi).

Amerika modeli — eng keng tarqalgan professional sport tizimi bo'lib, NFL (futbol), MLB (beysbol), NBA (basketbol), NHL (hokkey) ligalarini o'z ichiga oladi. Bu ligalar tijorat asosida tashkil etilgan, jamoalar ligadan tushib qolmaydi, va ular musobaqa tizimini o'zlari belgilaydi. Masalan:

NHL: ikki bosqich — muntazam chempionat va pley-off. Jamoalar geografik asosda konferensiyalarga va divizionlarga ajratiladi.

NBA: o'xshash tizim, ammo o'yin soni kamroq va ko'proq pley-offga qiziqish uyg'otiladi.

MLB: eng zich taqvim, jamoalar World Series'da bellashadi.

NFL: faqat 16 ta o'yinli qisqa mavsum, lekin Superkubok eng ommabop tadbirdir [4].

Xalqaro sport musobaqalari global sport harakati, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik, sog'lom raqobat tamoyillarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bunday musobaqalar — sportchilarning o'z mahoratini namoyon etish, milliy bayroq ostida g'alabaga erishish va o'z yurtini xalqaro miqyosda tanitish imkonidir. Shu bilan birga, bu musobaqalar jahon sport sanoati, iqtisodiyoti, turizm va diplomatiyasining ajralmas bo'lagidir. Xalqaro sport musobaqalarining muvaffaqiyatli tashkil etilishi va natijalarining adolatli bo'lishi, avvalo, qat'iy sport qoidalar va feyr-pley (Fair Play) tamoyillariga asoslanadi. Ushbu ikki omil — sportchilar, hakamlar, tomoshabinlar va tashkilotchilar o'rtasidagi huquqiy va axloqiy munosabatlarni tartibga soladi. Har bir sport turi bo'yicha alohida xalqaro federatsiyalar (masalan, FIFA — futbol, FIBA — basketbol, ITF — tennis) tomonidan maxsus qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu qoidalar sport turining o'ziga xos texnik, taktik va etik meyorlarini belgilaydi.

Sport turlari qoidalarining asosiy tarkibiy qismlari: Musobaqaning bosqichlari va formatlari (guruh, pley-off, turnir jadvali);

Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari;

O'yin texnikasi va ruxsat etilgan uslublar;

Baholash va hakamlik tizimi;

Shikoyat berish va apellyatsiya mexanizmi.

Feyr-pley — bu shunchaki axloqiy tushuncha emas, balki xalqaro sport huquqi va madaniyatining asosiy tamoyilidir. U sportchilar, jamoalar, hakamlar, tomoshabinlar va tashkilotchilar o'rtasidagi munosabatlarda adolat, halollik, hurmat va sport etikasini ta'minlaydi. Sport qoidalar va feyr-pley tamoyillari bir-birini to'ldiruvchi ikki asosdir. Qoidalar — tashkiliy va texnik asoslarni belgilasa, feyr-pley — ruhiy va madaniy mezonlarni ifodalaydi. Qoidalarsiz adolatli baholash bo'lmaydi, feyr-pleysiz esa sportda axloqiy barqarorlik yo'qoladi.

Xalqaro sport musobaqalari tashkilotchilarining vazifalari:

Musobaqalarni qoidalariga muvofiq tashkil etish;

Hakamlar faoliyati uchun shart-sharoit yaratish;

Sportchilarni feyr-pley ruhida tarbiyalash;

Noqonuniy harakatlarning oldini olish uchun monitoring va texnologiyalarni joriy qilish.

BMT va UNESCO ham sportda feyr-pley, tenglik va barqarorlikni targ'ib qiluvchi maxsus hujjatlar ishlab chiqqan. Xalqaro sport musobaqalarida qoidalar va feyr-pley tamoyillariga amal qilinishi sportning adolatli, halol va insoniy qadriyatlar asosida rivojlanishini ta'minlaydi. Sportning madaniyati va nufuzi, aynan ushbu tamoyillar asosida qaror topadi. Shu bois, barcha ishtirokchilar — sportchilar, hakamlar, tashkilotchilar va tomoshabinlar bu qadriyatlarga sodiq qolishlari zarur. Zero, sport — bu faqat g'alaba emas, balki halollikda yutish san'atidir.

Olimpiya o'yinlari — bu butun dunyo sportchilari va tomoshabinlarini birlashtiruvchi, yuksak sport mahorati, xalqaro do'stlik va insoniy qadriyatlar mujassam bo'lgan eng nufuzli global sport tadbiridir. Ular tarixiy ildizlarga ega bo'lib, nafaqat sport yutuqlarini, balki xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik, madaniy aloqalar va tinchlik g'oyalarini ilgari suradi. Bugungi kunda Olimpiya o'yinlarining tashkil etilishi va yuritilishi murakkab tashkiliy-huquqiy tizimlar orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunga kelib Olimpiya o'yinlari quyidagi toifalarda o'tkaziladi:

Yozgi Olimpiya o'yinlari;

Qishki Olimpiya o'yinlari;

Paralimpiya o'yinlari (nogironligi bo'lgan sportchilar uchun);

Yoshlar Olimpiya o'yinlari.

Olimpiya o'yinlarining tartib va marosimlari: Olimpiya o'yinlari o'tkazilishi murakkab rejalashtirish va ko'p bosqichli tashkiliy faoliyatni talab qiladi. Bu jarayon asosan quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Nomzod shaharlarning ariza topshirishi: Olimpiya o'yinlarini mezbonlik qilish istagidagi shaharlar Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ)ga rasmiy ariza bilan murojaat qiladi. Arizada shaharning infrastrukturasini, sport inshootlari, transport tizimi, xavfsizlik kafolatlari va iqtisodiy imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Tahlil va baholash jarayoni: XOQ tomonidan tuzilgan baholash komissiyasi nomzod shaharlarni texnik, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy mezonlar asosida baholaydi. Tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori reyting olgan shahar XOQ sessiyasida ovoz berish yo'li bilan tanlanadi.

Rasmiy tayinlash va shartnoma tuzish: Tanlab olingan mezbon shahar va XOQ o'rtasida rasmiy shartnoma tuziladi. Ushbu hujjatda o'yinlarning tashkiliy, moliyaviy, huquqiy va logistik masalalari belgilab qo'yiladi.

Tayyorlov bosqichi: Mezbon shahar tashkilotchilari — LOCOG (Local Organizing Committee for the Olympic Games) nomi bilan yuritiluvchi qo'mita tashkil etadi. LOCOG sport inshootlarini barpo etish, infratuzilmani rivojlantirish, marketing, xavfsizlik va sportchilarni qabul qilish bo'yicha ishlarni olib boradi.

Olimpiya o'yinlarini boshqaruvchi asosiy tuzilmalar

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ). XOQ — Olimpiya harakatining boshqaruvchi organi bo'lib, Olimpiya xartiyasi asosida faoliyat yuritadi. XOQ:

O'yinlarning tartibini belgilaydi;

Mezbon shaharni tanlaydi;

Sport turlarini tanlash va yangilarini qo'shish bo'yicha qaror qabul qiladi;

Halollik va feyr-pley tamoyillariga rioya qilinishini nazorat qiladi.

Olimpiya o'yinlari tashkilot qo'mitasi (LOCOG). LOCOG bevosita mezbon shahar tomonidan tashkil etilib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

Sport inshootlarini qurish va modernizatsiya qilish;

Transport va turizm infratuzilmasini tayyorlash;

Marosimlar, tadbirlar va volontyorlar faoliyatini tashkil etish;

Mahalliy va xalqaro homiyar bilan ishlash;

O'yinlarning logistika va xavfsizlik tizimlarini boshqarish.

Olimpiya o'yinlarining huquqiy asoslari:

Olimpiya xartiyasi: Olimpiya xartiyasi — Olimpiya harakatining konstitutsiyasi hisoblanadi. U o'yinlarni tashkil etish tartibi, ishtirokchi davlatlar, XOQ vakolatlari va sport etikasi bo'yicha normalarni o'z ichiga oladi.

XOQ va mezbon davlat o'rtasidagi shartnoma: Bu hujjatda Olimpiya o'yinlarini o'tkazishdagi barcha tashkiliy va huquqiy majburiyatlar belgilab qo'yiladi: vizaviy tartib, bojxona imtiyozlari, intellektual mulk huquqlari va sportchilar xavfsizligi.

O'yinlar davomida mezbon davlat o'zining milliy qonunchiligini xalqaro meyorlar bilan muvofiqlashtiradi, jumladan:

Chegara va immigratsiya nazorati;

Sog'liqni saqlash va epidemiyaga qarshi choralar;

Maxsus soliq va boj imtiyozlari;

Dopingga qarshi kurash choralarini qonuniylashtirish.

Olimpiya o'yinlari qat'iy rasmiy marosimlar asosida tashkil etiladi. Bu marosimlar sportning estetik, madaniy va mafkuraviy boyligini namoyon etadi.

Ochilish marosimi odatda san'at, musiqa, tarixiy lavhalar va texnologik yutuqlar uyg'unligida o'tkaziladi. Har bir davlat sportchilari o'z bayroqlari ostida parad marosimida ishtirok etadi. XOQ prezidenti Olimpiya o'yinlarini rasmiy ochiq deb e'lon qiladi. Olimpiya mash'alasi stadionga olib kirilib, olov yondiriladi — bu qadimiy Olimpiya an'analariga hurmat belgisi.

O'yinlar yakunlangach, yopilish marosimi bo'lib o'tadi. Unda g'olib sportchilar taqdirlanadi, Olimpiya bayrog'i tushiriladi va navbatdagi mezbon shaharga ramziy topshiriladi.

Xulosa va takliflar. Olimpiya o'yinlari sportning eng yuqori nuqtasini ifodalaydi. Ularning tashkil etilishi jarayoni murakkab va ko'plab bosqichlarni o'z ichiga oladi, shu bilan birga xalqaro sport tashkilotlari va tashkilotchilar tomonidan puxta rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Olimpiya o'yinlari nafaqat sportning rivojlanishini ta'minlaydi, balki jahon madaniyatini va xalqaro hamkorlikni ham rivojlantiradi. O'yinlarni muvaffaqiyatli o'tkazish orqali xalqaro sport sohasida yuksak standartlarni belgilash va sport madaniyatini oshirish mumkin.

Olimpiya o'yinlari zamonaviy jamiyatning sport, madaniyat, huquq va iqtisodiy hayotini birlashtiruvchi yirik global hodisa sifatida e'tirof etiladi. Ularning muvaffaqiyatli o'tkazilishi aniq tashkiliy tizim, huquqiy asoslar, xalqaro hamkorlik va sport tamoyillariga sodiqlik orqali amalga oshiriladi. Har bir Olimpiya o'yini insoniyatning birligi, tinchlik va sog'lom turmush tarzi uchun muhim xabardir. Shu bois, Olimpiya o'yinlari xalqaro sport tizimining markaziy poydevorini tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Переверзин И.И. Физическая культура и спорт в СССР: Факты и цифры; Москва.Знание,1985.
2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. Москва. Спорт,2021.
3. Гуськов С.И. Профессиональный спорт и российская действительность Физическая культура и спорт в Российской Федерации. - М.: Импульс- Принт, 2012
4. Asatova G.R., Xayotov A.X., Narimanov B.A. Xalqaro sport huquqi asoslari. O'quv qo'llanma. —T.: Ilmiy texnika axboroti — press nashriyoti, 2018. — 140 b.